

Bosh muharrir:

Sharipov Shavkat Safarovich

Tahrir hay'ati:

*Abdullayeva Barno (bosh muharrir
o'rinbasari)*

Avazov Sherimmat

Adilov Po'lat

Adilova Saodat

*Ashirboyev Samixon (bosh muharrirning
birinchi o'rinbasari)*

Davletov Davron

Ergashev Dilshod

Ergashov Maxamatrasul

Fayziyeva Mahbuba

Fayzullayev Saidnosir

Hakimova Muhabbat

Isyanov Ravil

Jalalov Jamal

Jo'rayev Muhammadrasul

Komilova Nodira

Muminov Axrol

Muslimov Narzulla

Panjiyev Qurbonniyoz

*Qo'ysinov Odil (bosh muharrir
o'rinbasari)*

Qodirova Fatima

Ruziyev Erkin

Safayev Nuriddin

Sotiboldiyev Abduhashim

To'rayev Samad

Talipova Jamila

Tulenova Karima

Urazova Marina

Valiyeva Sirojiya

Xankeldiyev Sher

Shodmonova Shaira

Muassis – Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika
universiteti.

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik
ta’lim” jurnalining vorisidir.

Jurnalda pedagogika, psixologiya,
o’qitishning metod va texnologiya-lariga
oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik
maqolalar o’zbek va rus tillarida chop
etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot
va axborot boshqarmasining 2014-yil
26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy
axborot vositasi davlat ro’yxatidan
o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma”
olingan va unga O’zbekiston Respub-
likasi Milliy kitob palatasining 2008-yil
30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida
Davriy nashrlarning Xalqaro standart-
lar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim
etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy
attestatsiya Komissiyasi rayosatining
2013-yil 30-dekabrda 201/3-sonli
qarori bilan ro’yxatga olingan.

Jurnal oliy va o’rta maxsus,
kasb-hunar ta’limi, umumiy o’rta
ta’lim, malaka oshirish va qayta
tayyorlash tizimi pedagog xodimlari,
ilmiy xodimlar, doktorantlar,
tinglovchilar, magistratura va
bakalavriat talabalari uchun
mo’ljallangan.

OLIY TA'LIMDA AMALIY ISHLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Rezume. Maqolada oliy ta'limda texnologiya fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda talabalar bilimini baholash mezonlari bo'yicha takomillashtirilgan yondashuvning afzalliklari asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: mezon, me'yor, obyekt, bilim, ko'nikma, malaka, dizayn, model, maket, detal.

Abstract. The article substantiates the advantages of an improved approach to the criteria for assessing students' knowledge in practical classes on technology disciplines in the system of higher education.

Key words: criteria, standards, object, knowledge, ability, skill, design, model, layout, detail.

Резюме. В статье обоснованы преимущества усовершенствованного подхода к критериям оценки знаний студентов на практических занятиях по дисциплинам технологии в системе высшего образования.

Ключевые слова: критерий, норма, объект, знание, умение, навык, дизайн, модель, макет, деталь.

Oliy ta'lim muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishlaridagi fanlar o'quv dasturlarida amaliy ishlar uchun tegishli soatlar ajratilgan, ammo talabalarning bajargan amaliy ishlarini baholashning namunaviy



T. Ismoilov*



T. Aliboyev*



J. Orishev*

*Ismoilov To'ychi Jabborovich, A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti mehnat ta'limi va umumiy texnika fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi. E-mail: telia.1@mail.ru

*Aliboyev Turg'un Chindaliyevich, A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti mehnat ta'limi va umumiy texnika fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi. E-mail: telia.1@mail.ru

*Orishev Jamshid Bahodirovich, A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti mehnat ta'limi va umumiy texnika fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi. E-mail: telia.1@mail.ru

mezoni (me'yor) hozirgacha ishlab chiqilmagan. Ana shu muammoni ijobiy hal qilish maqsadida amaliy mashg'ulotlarda talabalar bilimi, ko'nikmasi va malakalarini hisobga olgan holda, obyektiv baholashning mezoni ishlab chiqildi. Maqolada ana shu tavsiyalar haqidagi mulohazalar bayon qilinadi. Talabalarning har qanday faoliyati natijasini obyektiv baholash o'quv jarayonining muhim va ajralmas qismi ekanligi barchaga ayon. Ularning o'rgatuvchi, tarbiyalovchi va nazorat qiluvchi vazifalarini bajarishda amalga oshirilgan har qanday ijodkorlik ishini obyektiv baholash ularda mustaqillik, maqsad sari intiluvchanlik, mehnatsevarlik, o'z ishidan zavqlanish, muvaffaqiyatlaridan ruhlanish hamda o'qishga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga sabab bo'ladi. Shu ma'noda talabalar amaliy ishlarini nazorat qilishda quyidagi bilimlarni hisobga olish tavsiya etiladi, ularga: bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, konkretligi, tizimligi, tasavvur qila olishi va mustahkamligi kiradi.

Amaliy ishlarda talabalarning bajargan original qurilma, model, maket va boshqa texnologik sxemalarini baholashdagi mezonlariga: bilimlar (nazariy va texnik, texnologik), ko'nikmalar (ishni oqilona tashkil qilishi, ish joyida operatsiyalarni to'g'ri bajara olishi), malaka (buyumni tayyorlash sifati, o'lchamlarning aniqligi, sirtlarning tekisligi, texnik estetikasi (dizayni) va vaqt sarflari) kiradi.

Mazkur mezonlar bo'yicha amaliy ishlarni baholashning me'yor (norma)larini o'qituvchi va talabalar bilishi hamda unga amal qilishi zarur. Ana shu baholash mezonlari bo'yicha me'yorlar maxsus ko'rgazma taxtasida aks etishi maqsadga muvofiq.

Talabalarning bilimni baholash me'yorlari. Talabalarning amaliy ishga oid bilimni o'qituvchi ishni boshlashdan oldin so'rab aniqlashtirgani ma'qul. Bu juda muhim, chunki talabaga berilgan yoki uning o'zi tanlagan mavzudagi ijodkorlik obyektida ko'zda tutilgan amaliy ishni bajarish uchun undagi nazariy bilimlar qay darajada ekanligi aniqlanadi.

Suhbat jarayonida talabalarning **bilimini** baholash mezoni quyidagi me'yorlarda bo'lishi mumkin:

86 va undan ortiq ball qo'yish me'yori:

- talaba obyektga oid o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan;
- uni o'z so'zlari bilan bayon qila oladi;

- konkret misollar bilan mustaqil javob bera oladi;
- o'qituvchining qo'shimcha savollariga to'g'ri va asosli javob bera oladi.

71 va 85 ball qo'yish me'yori:

- o'quv materialini yetarlicha o'rgangan;
- uni o'z so'zi bilan bayon qilishida ba'zi kichik xatolarga yo'l qo'yadi;
- konkret misollar bilan aniq javob bera oladi;
- o'qituvchining qo'shimcha savollariga to'g'ri va mantiqli javob bera

oladi.

55 va 70 ball qo'yish me'yori:

- o'quv materialini to'liq o'rganmagan;
- uni bayon qilishda chalkashliklarga yo'l qo'yadi;
- konkret misollar bilan javob berishda qiynaladi;
- qo'shimcha savollarga bo'sh (chala) javob beradi.

54 va undan kam ball qo'yish me'yori:

- o'quv materialini deyarli o'zlashtira olmagan;
- o'z so'zi bilan mustaqil bayon qila olmaydi;
- konkret misollar bilan javob bera olmaydi;
- qo'shimcha savollarga, deyarli, javob bera olmaydi.

Deyarli, barcha amaliy ishlarda dastlabki amaliy qadam talabalarga berilgan (yoki o'zlari tavsiya qilayotgan) ijodkorlik ishi (original, model, maket)ning grafik chizmasini tasavvur qila olishi va uni to'g'ri chizib ola bilish ko'nikmasi hisoblanadi, chunki qolgan barcha ishlar ketma-ketligi (qurilmaga kerakli detallar, har bir detalning o'lchami, uni tayyorlashning texnologik xaritalarini ishlab chiqish) ana shu obyektning dastlabki tasavvurdagi yig'ish chizmasiga oid ko'nikmalar asosida bajariladi.

Talabalarning amaliy ishga oid ko'nikmalarini baholash me'yorlari:

86 - 100 ball qo'yish me'yori:

- ishni bajarish obyekti chizmasini ijodkorlik asosida to'g'ri rejalashtira oladi;
- chizmachilik va texnologiya ta'limidan olgan bilimlari mustaqil va to'liq;
- obyektning yig'ish chizmasini to'g'ri va aniq ifodalab bera oladi;
- detallarning ko'rinishi, holati va nomlarini to'g'ri belgilay oladi;

71-85 ball qo'yish me'yori:

- berilgan amaliy ish obyektining grafik chizmasini to'g'ri rejalashtira oladi;
- chizmachilik va texnologiya ta'limi fanidan olgan bilimlari yetarli;
- amaliy ish obyektining yig'ish chizmasini yetarli darajada ifodalab bera oladi;

- detallarning ko'rinish holati va nomlarida ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yadi.

55-70 ball qo'yish me'yori:

- berilgan amaliy ish objekti umumiy ko'rinishini rejalashda xatoga yo'l qo'yadi;

- chizmachilik va texnologiya ta'limi fanidan olgan bilimlari to'liq emas;
- amaliy ish obyektining yig'ish chizmasini tasvirlash tushunchasi to'liq emas;

- detallar ko'rinishi va nomlarini belgilashda ba'zan xatolikka yo'l qo'yadi.

0-54 ball qo'yish me'yori:

- amaliy ish objekti umumiy ko'rinishini talab darajasida rejalashtira olmaydi;

- ishni bajarishga oid bilimlari qisman yetarli emas;
- amaliy ish objekti chizmasi umumiy ko'rinishini chizishda xatoga yo'l qo'yadi;

- detallar ko'rinishini yaxshi tasavvur qila olmaydi va belgilashda xatolikka yo'l qo'yadi¹.

Talabalarning amaliy ishlarni bajarishdagi malakasini baholash. Har bir talabaning bajargan amaliy ishini malakasi bo'yicha baholash o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi, chunki unda o'qituvchi ularning ishini bajarishdagi malakasini hamisha nazorat qilib borishi hamda bir qancha omillarni e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Ana shunday jiddiy nazorat tekshiruv va baholashdagi me'yorlarni, taxminan, to'rtta guruhga birlashtirib qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda ham yuqoridagidek qabul qilingan "86-100 ball", "71-85 ball", "55-70 ball" va "0-54 ball" baholash me'yorlari qo'llaniladi. Har bir guruhga to'rtta baholash darajasi ishlab chiqiladi. Bu esa ishning bajarilish sifati va hajmi(miqdori)ni nisbiy ballar (n.b.)da ifodalashni taqozo etadi, masalan: 6,0 n.b., 1,5 n.b. va hokazo (1-jadvalda keltirilgan).

¹Ismoilov T. va boshqalar. Mehnat va kasb ta'limi bakalavriat yo'nalishlarida muhandislik fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Namangan: NamDU, 2012. – B. 123-124.

1-jadval

Talabalarning amaliy ishlarini malakasi bo'yicha baholash me'yorlari¹

Tekshiruv obyekti guruh lari	Guruh obyektlari bo'yicha talablarning bajarilishiga qo'yiladigan darajalar va ularning mezonlari			
	86-100 ball	71-85 ball	55-70 ball	0-54 ball
I	Ishni puxta rejalashtirgan va ish joyiga muvofiq tashkillashtirgan, xavfsizlik texnikasiga to'liq rioya etadi – 5,0 n.b.	Ishni rejalashtirish va tashkillashtirish da ba'zi kichik xatoliklarga yo'l qo'ygan. Texnika xavfsizligiga rioya etadi – 4,0 n.b.	Ishni rejalashtirish va tashkil etishda kamchiliklar mavjud. Texnika xavfsizligiga to'liq rioya etmagan – 3,0 n.b.	Ishni rejalashtirishi noto'g'ri va tashkil etishda jiddiy xatoga yo'l qo'yilgan. Texnika xavfsizligiga rioya etmagan – 2.0 n.b.
II	Amaliy ishni bajarishda operatsiyalarni to'g'ri bajargan, ishni mustaqil va ijodkorlik asosida amalga oshirgan – 7,0 n.b.	Barcha operatsiyalarni deyarli to'g'ri bajara olgan, ishni mustaqil amalga oshirgan – 6,0 n.b.	Ba'zi operatsiyalarni noto'g'ri bajargan, ishdagi mustaqilligi past darajada – 4,0 n.b.	Ko'p operatsiyalarni noto'g'ri bajargan, ishdagi mustaqilligi deyarli sezilmaydi – 1,5 n.b.
III	Amaliy ish topshirig'ini belgilangan muddatda yoki undan oldin bajargan – 3,0 n.b.	Berilgan amaliy ishni belgilangan vaqtdan 10-15% ko'p muddatda kechikib bajargan – 2,5 n.b.	Berilgan amaliy ishni belgilangan vaqtdan 15-20% ko'p muddatda kechikib bajargan – 1,5 n.b.	Berilgan amaliy ishni belgilangan vaqtdan 20-30% ko'p muddatda kechikib bajargan – 0,75 n.b.

¹Yusupov K. va boshqalar. Mehnat va kasb ta'limi bakalavriat yo'nalishlarida muhandislik fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Namangan: NamDU, 2012. – B. 124-126.

IV	<p>Amaliy ish obyekti (model, maket va hokazo) oʻrnatilgan talabni qanoatlantiradigan holatda bajarilgan, yuzasining silliqligi yaxshi – 3,0 n.b.</p> <p>Asosiy operatsiyalarning bajarilishi sifati (rezba ochish, pachinlash va hokazo) yaxshi – 2,0 n.b.</p> <p>Oʻlchamlarining aniqliligiga rioya etilgan – 5,0 n.b.</p>	<p>Amaliy ish obyektida baʼzi kichik nuqsonlar mavjud holatida bajarilgan, sirtning gʻadir-budurligi seziladi – 2,5 n.b.</p> <p>Asosiy operatsiyalarni bajarishda sal chetga chiqish mavjud – 1,5 n.b.</p> <p>Oʻlchamlarining aniq tayyorlanishiga rioya etilganligi darajasi – 4,0 n.b.</p>	<p>Amaliy ish obyektini tayyorlashda baʼzi talablarning buzilishiga yoʻl qoʻyilgan, sirtning silliqligida nuqsonlar mavjud – 1,5 n.b.</p> <p>Asosiy operatsiyalar baʼzi nuqsonlar bilan bajarilgan – 1,0 n.b.</p> <p>Oʻlchamlarining aniqliligida chetga chiqishlar mavjud – 2,5 n.b.</p>	<p>Amaliy ishda talablarning bajarilishida chetga chiqishlar mavjud, sirtning silliqligi talabdan past – 1,0 n.b.</p> <p>Operatsiyalarning bajarilishida jiddiy xatolarga yoʻl qoʻyilgan – 0,5 n.b.</p> <p>Oʻlchamlari noaniq tayyorlangan – 1,5 n.b.</p>
----	--	--	---	---

Maʼlumki, amaliy ish obyektlarining oddiy yoki murakkabligiga qarab uni bajarish muddatining belgilanishi oʻqituvchidan yetarlicha tajriba talab etadi. Talabalarning amaliy ishlarini bajarish muddati yuqoridagidek foizlarda hisobga olish baʼzi holatlarda oʻqituvchiga qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Shu bois, amaliy ishni bajarish muddati belgilangan kunlarda qay darajada uddalaganligi (faolligi)ni yanada samarali baholashda ularning ishini vaqtida topshirganligini tekshiruvlar soniga qarab hisobga olish yaxshi natija beradi. Quyidagi 2-jadvalda ana shu nazorat mazmuni keltirilgan¹.

2-jadval

Ishni oʻz vaqtida bajarganligi boʻyicha talablarning darajalari

Ishni topshirishdagi oʻrinlar	Baholar
-------------------------------	---------

¹Muslimov N. A., Sharipov Sh. S., Qoʻysinov O. A. Mehnat taʼlimini oʻqitish metodikasi, kasb tanlashga yoʻllash. – Toshkent: «START-TRASK PRINT» XK. 2014. – B. 187-200.

Ishni tugallab topshirganlar ro'yxatida: 1 - 5 - o'rinlar	86-100
6 - 18 o'rinlar	71-85
19 - 52 o'rinlar	55-70
53dan keyingi o'rinlar	0-54

Amaliy ishlarning umumiy yakuniy natijasini baholash usullari. Yuqoridagi baholash me'yorlarini belgilovchi nazorat tekshiruv materiallari asosida o'qituvchi talabalarning amaliy ishlarini yakuniy baholashda o'ziga xos har xil usullardan foydalanishi mumkin¹.

Agar amaliy ishni bajarishda talabani har bir faoliyatini chuqur tahlil etish talab etilmasa, faqat ishning sifati asosiy mezon hisoblanadi va joriy baholash bo'yicha olib borilishi maqsadga muvofiq. Amaliy ishlarni darsda va darsdan tashqari vaqtlarda bajargan hollarda esa baholashning analitik usuli samarali hisoblanadi. Bunda oldindan baholash jadvali (3-jadval) tayyorlab olinadi. O'qituvchi barcha ko'rsatkichlar darajasi bo'yicha tekshiruv natijalarini har bir talabani familiyasi qarshisiga baholashning mos nisbiy ballardagi miqdori (6 n.b., 2,5 n.b. va hokazo) bo'yicha yozib boradi.

3-jadval

Talabalarning tugallangan amaliy ishlarini baholash jadvali

talaba	nazorat- tekshiruv turi						nisbiy ballari (n.b.)ning arifmetik yig'indisi	baholar
	ishni rejalashtirish mahorati va ish o'rmini muvofiq tashkillashtirish darajasi	operatsiyalarni bajarish qobiliyati va ijodiy hamda mustaqil yondashuvi	belgilangan muddatda bajarilganligi yoki kechikib bajarilganligi	talab darajasida bajarilish sifati				
				A	B	V		
				sirtni silliqligi	operatsiyalarning bajarilish sifati	olchamlariga rioya qilinganligi		
	5,0	7,0	2,5	2,5	2,0	5,0	24,0	
	5,0	6,0	1,5	2,0	2,0	4,0	21,5	
	4,0	4,0	1,0	1,5	1,0	2,5	14,0	
o'rtacha ko'rsatkich	4,6	5,7	1,6	2,3	1,7	3,9	21,7	

¹Sharipov Sh. S., Muslimov N. A. Texnik ijodkorlik va dizayn. – Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU. 2007. – B. 134-137.

3-jadvaldagi nisbiy ballar arifmetik yig'indisi asosida yakunlovchi umumiy baholash me'yori belgilab olinadi va shu bo'yicha talabalarning amaliy ishlari 4-jadvalda ko'rsatilganidek baholanadi.

4-jadval

Talabalar amaliy ishini yakuniy baholash me'yorlari

nisbiy bal(n.b)larning arifmetik yig'indisi	baholash me'yorlari
23,5-25,0	5
18,5-23,4	4
13,5-18,4	3
6,75-13,4	2

Mazkur analitik baholash talabalarning amaliy ishlarni bajarishdagi bilim, ko'nikma va malakalarini real baholash imkonini beradi. Nisbiy ballar miqdoridan foydalanib har bir talabanning muvaffaqiyati yoki kamchiligi asosli ravishda ochib beriladi. Bu talabalarning olgan bahosiga ba'zi norozilik va e'tirozlar bo'lishining oldini olib, yaxshi ijodkorlik muhiti yaratilishiga olib keladi. Bundan tashqari, o'qituvchi har bir obyekt bo'yicha nisbiy ballarning o'rtacha qiymatini tahlil qilishi barobarida o'zining tashkiliy pedagogik va metodik muvaffaqiyatlari yoki, aksincha, kamchiliklarini obyektiv bilib olishiga imkon yaratiladi.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA	
Mirsoliyeva Muxabbat Assessment – pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini baholashning innovatsion metodi sifatida.....	Богдалова Гульнора Мартьянова Валерия Особенности влияния иррациональных установок на мотивацию обучения в юношеском возрасте.....
2	57
Zaripov Lochin Kasbga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalash.....	Mamatqulova Nilufar Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning oliy ta'limda xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati....
10	64
Ishquvatov Valiqul Mahalla va oliy ta'lim munosabati.....	TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI
17	Shonazarov Asror Ta'lim tizimi rahbarlarining kasbiy kompetentligiga xos pedagogik-psixologik sifatlar.....
Xalikov A'zam Pedagogik kasbiy refleksiyaning tashxislash talqini.....	69
23	MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI
Джамилова Наргиза О некоторых вопросах изученности проблемы инициативности у обучаемых.....	Matjanov Nurjan Формирование понятий о квантовых явлениях в общеобразовательной школе.....
31	76
Nazirova Go'zal Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash.....	Kuchkarova Dilarom Rixsibayeva Xurshida Chizma geometriyada masalalar klassifikatsiyasi.....
36	82
Musayeva Nargiza Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning noverbal muloqoti.....	Abdurizayeva Salima Biologiyani o'qitish jarayonida ijodiy muhitni yaratish.....
41	88
Ismoilov To'ychi Aliboyev Turg'un Orishev Jamshid Oliy ta'limda amaliy ishlarni baholash mezonlari.....	Usmonqulov Sherzod Informatika ta'limida integrativ yondashuv.....
49	94